

ZAMONAVIY SAN'AT VA UNING YOSHLAR  
DUNYOQARASHIGA TA'SIRI

*Ostonova Umida Sharifovna*

*Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti NTM*

*Xorijiy tillar fakulteti 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada san'at va uning turlarini hozirgi kundagi yoshlar dunyoqarashiga ta'siri hamda buyuk ajodolarimiz qoldirgan ilmiy va ma'naviy merosni asrab-avaylash, ulardan milliy-ma'naviy tarbiy jarayonida oqilona foydalanish xozirgi davrda muhim ahamiyat kasb etayotganligi borasida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar :** san'at, kino, televidenie, milliy qadriyatlar, tarbiya, ezgulik, yuksak axloqiylik, ziyolilik, iymon-e'tiqod.

CONTEMPORARY ART AND ITS INFLUENCE  
ON THE WORLDVIEW OF YOUNG PEOPLE.

**Abstract.** This article examines the influence of art and its types on the worldview of modern youth, as well as the importance of preserving the scientific and spiritual heritage left by our great ancestors and their rational use in the process of national and spiritual education.

**Keywords:** art, cinema, television, national values, education, goodness, high morality, intelligence, faith.

**Kirish.** Kino – bu yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va xulq-atvori shakllanishida muhim rol o'ynaydigan kuchli vositadir. U shunchaki ko'ngil ochish emas, balki ma'lumot, g'oya va madaniy kodlarni uzatish vositasidir. Zero Jean-Luc Godard ta'kidlaganidek "Kino-hayotning aksidir va shu bilan birga uning o'zi ham". Bundan tushinishimiz umkinki, filmlarda bizga singdrilayotgan g'oyalalar bir vaqtning ozida ham rost ham yolg'on royo, foydali yoki manipulyatsion bo'lishi mumkun, ulardan qanday hulosa chiqarish esa inson omilining o'zigagina bog'liq.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Ushbu maqolada zamonaviy san'atning qadimiyligi madaniyat va urf odatlarga ta'siri muhokama qilinar ekan, keling avval zamonaviy san'at o'zi nima ekanligi va u bizga qanday maqsadlarda kerak bolishini aniqlashtirib olaylik. Zamonaviy san'at aniq bir boshlanish sanasi yoki davriga ega emas. Bu doimiy rivojlanib boruvchi jarayon bo'lib' 19-asr oxiri va 20-asr boshlarida ko'proq ko'zga tashlana boshlaydi. Ushbu davrga kelib fotografiya, kino, psixanaliz kabi ilmiy kashfiyotlar qolaversa, industriyadagi rivojlanishlar shaharlashuv jarayonlari va jahon urishlari san'atga kuchli ta'sir otkazdi va uning ijtimoiy rolini

qayta korib chiqilishiga sabab bo'ldi. Zamonaviy san'atga misol qilib keltirishimiz mumkun bo'lган yo'naliшlардан бiri bu teleserialdir. Teleseriallar bir vaqtning o'zida adabiyot , teatr, tasviriylar san'at, musiqa va boshqa san'at turlarini o'zida jamlay olishi bilan shubhasiz zamonaviy san'atning eng yorqin va ta'sirli turlaridan бiri hisoblanadi. Lekin hech qiziqib ko'rganmisiz teleseriallarning jamiyat va yoshlар hayotidagi orni qanday va ular tomosha qilayotgan serial va filmlar ularning fikirlash va dunyoqarashiga qanday ta'sir o'tkzishi mumkin?!

Bugungi kunda respublikadagi tele va katta kino ekranlarida dedektiv xarakteridagi asarlarni zavq bilan ko'ruchchi tomoshabinlar auditoriyasi asosan yoshlар ekani meni tashvishga solmoqda, deydi psixolog Irina Afanasyeva. Uning fikricha, zo'ravonliklar haqidagi filmlar yoshlар ong-tafakkuriyu tarbiyasiga salbiy ta'sir etib, ularni fikrlashu mulohaza yuritishdan mahrum etad [1]. Albatta gap bu mavzuda ketar ekan, hozirgi kunga kelib yoshlар judayam qiziqqon va ko'rgan harakatlarini qilib ko'rishga moyil ekanligini ham hisobga olish kerak. Bundan tashqari so'ngi paytlardajtimoiy tarmoqlarda davlat va xususiy telekanallarda namoyish etilayotgan xorij, xususan turk seriallari ko'plab muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Bunga sabab esa ularnning milliy mintalitetimizga zid ekanligi va yoshlар ongini turli hil mafkuralar bilan band qilayotganli, bundan tashqari turli xil "feministik" g'oyalarni ilgari surayotganligi sabab qilib keltirilmoqda. Jurnalist Maqsud Jonixonov Darakchi (19.02.2018) gazetasiga bergen intervyusida xorij, ayniqsa zamonaviy turk seriallaridagi tasvirlarni ko'rib odam uyalib ketishini va "Sevgi istirobi" teleserialining bir nechta qisimlarini kuzatib, qiz aka-ukasi, ota-onalar davrasida bemalol ochiq-sochiq o'tira olishi, hayotdagi muammolarni ikir-chikirigacha aytishini kuzatib hayratda qolganini ta'kidlaydi. Bunga qo'shimcha qilib esa oilaga xiyonat serialning asosiy mavzusi ekanligi aytildi. Darxaqiqat, ushbu serial orqali oiladek ulug' maskanga yengil qarash, oilali bo'la turib boshqa biriga ko'ngil qo'yish oddiy hol ekanligi xalqqa singdirilishi ko'zda tutilgandek go'yo. Ammo shuni ma'lum qilish kerakki yuqorida keltirilgan ma'lumotlar orqali namoyish etilayotgan barcha seriallar birdek yomon va milliyligimizga zid degani emas, Bunga misol qilib "Muhtasham yuz yil" serialini olsak, ushbu serial Sulaymon va Hurramning asrlar davomida tillarda doston bo'lib kelayotgan buyuk ishqini tarannum etuvchi ajoyib asardir. Ammo shunga qaramay ushbu serialda ham haqiqatdan uzoq va tarixi inkor etuvchi saxnalar borligini fakt sifatida keltirishimiz mumkin. Masalan Daryo.uz saytida keltirilgan ma'lumotlarga asoslansak, serial syujetiga ko'ra, Aleksandra ya'ni Hurram sulton saroyda tirik qolish uchun ko'plab fitnalar uyushtrganligi, shuningdek, farzandlari manfaatlari uchun Sulaymonning his-tuyg'ulari bilan oynashgani bayon qilinadi ,ammo bularning bari shunchaki to'qima syujet ekanligi va tarixchilar buni mutlaqo inkor qilishi aytildi [3]. Ammo masalaga chuqurroq yondoshadigan bo'lsk, ushbu syujetlar orqali insonlar orasiga sovuqchilik tushurish, yaxshi yashash uchun boshqalardan o'z maqsadlari

yo'lida foydalanish uchunchalik ham yomon emasligini tushunishimiz mumkin bo'lib qoladi.

**Natijalar.** Har bir tananing ikki tomoni bo'lganidek keling masalaga ham boshqa tomonidan qaraymiz. Agar biz filmlardan ibrat olish uchun ularni kuzatsak ba'zida filmlarni ko'rish tushunmasdan kitob o'qishdan kora foydaliroq ekanini tushunib yetamiz. Masalan hurram obrazidan inson qanchalik darajada o'ziga ishonsa u shunchalik maftunkor, jozibali va kuchli ko'rinishini tushunish mumkin. Undan tashqari serialdagи Hurram obrazidan o'rganish mumkun bolgan jihatlardan ba'zilari bular ozimiz bolishimiz yani qanday vaziyat bo'lmasin o'zimiz va yaqinlarimizga sodiq qolishimmiz, ularni himoya qilishga ma'suliyatli bo'lishni o'rganishimiz mumkin.

Seriallar muntazam, bir necha oylar davomida bir xil vaqtida va bir xil davomiylidka efirga uzatilganligi sababli ham inson psixologiyasiga ta'sir o'tkaza olish va dunyoqarashini o'zgartiraolish kuchiga ega. Shuning uchun ham har qanday ko'rsatuv, teleserial va filmlar insonlar e'tiboriga havola etilishdan avval televidenie xodimlari tomonidan ehtiyyotkorlik bilan ko'zdan kechirilib undan keyingina ommaga uzatilishi kerak.

**Muhokama.** Afsuski, yaqin o'n yildan beri telekanallarimizni chet el film ko'rsatuv va teleseriallari egallab oldi. Va ularning orasida Lotin Amerikasi, Janubiy Koreya, Hindiston, Pokiston va Turkiya kabi davlatlar yetakchilik qilmoqda. Nega aynan Turkiya degan savol tug'ilishi mumkin? Chunki yuqorida keltirilgan davlatlardan bizning millatimiz tilimiz va dinimizga eng yaqini bu turkiyadir. Shu sababdan yoshlар va jamiyatda turk serial va filmlarida ko'rganlarini qaytarishga moyillik ko'proq. Bunga misol qilib "Chuqur" seriali primyerasidan keying vaqlarni keltirish mumkin. Primyeradan ko'p o'tmay aksariyat yoshlарimiz orasida mahalla belgisini ifodalovchi tatyurovkalar va aksessuarlar urfga aylanganini ko'ramiz. Bu xol nafaqat voyaga yetganlar balki maktab tarbiyalanuvchilarini orasida ham keng tarqalgan. Turkiyalik psixolog, o'qituvchi Said Chamlija Farzand tarbiyasida 33 xato risolasida shunday deydi: Qutblarda ovchilar qutb ayiqlarini qanday ovlashi haqida o'qiganimda hayratlangandim. Ovchilar qutb ayiqlarini terisiga hech qanday zarar yetkazmay, ya'ni po'stini shilmay ovlay oladilar. Qutb ayiqlari qonni yaxshi ko'radi. Ovchilar ularni ovlayotganda ana shu nozik nuqtasidan foydalanadi. Ovchilar o'tkir bolta yoki uchi yo'ng'ichli qurolni uchi ko'rindigan qilib ko'mishadi. Qurolning ko'rindigan qismiga biroz qon surishadi. Qon hidi atrofga tarqalguncha kutib turishadi. Qon hidini olgan ayiqlar iskab iskab kelishadi. Qon quyuqroq to'kilgan hududga kela solib yalahsga tushishadi. O'tkir tig' yoki bolta tilini kesadi. Lekin ayiqqa qon hidi shunday yoqadiki, tilining jarohatini ham sezmaydi. Ayiq qonni yalayveradi, tilidan qon oqaveradi. O'z qonini yalayotganini bilmaydigan ayiqni bu tuzoqdan hech kim qutqarolmaydi. Ma'lum vaqtdan so'ng qon yo'qotaverganidan holsizlanadi va o'ladi.

Ovchilar ayiqning butkul jon taslim qilganiga ishonch hosil qilib terisini shiladilar [4]. Bu hikoya keltirilishining boisi shundaki, qutb ayig'i birinchi hatosidan keyin o'zini qutqara olmagani singari televizorda har kuni namoyish etilayotgan seriallar ham shavqatsizlarcha tuzoqqa tushurish bilan bir hil. Bu seriallarni ko'rgandan keyin kishi o'zini serialning keying qismida uni nimalar kutib turganini oylashdan to'xtataolmaydi. Kunlar o'tavergani sari serialning yangidan yangi qismlarini kutib yoki undagi bolgan voqeа va hodisalar haqida o'ylab ba'zida shu tufayli stress va depressiyani boshdan kechirib, umrimizning oltinga teng onlarini yo'qotaveramiz. Ba'zida insonlar o'zlari muhlislik qilayotgan seriallarga shu darajada mukkasidan ketadilarki farzand tarbiyasini ham unutadilar. Aynan shu holni yoshlar hattoki maktab o'quvchilari orasida ham uchratishimiz mumkun. Tungi vaqtarda efirga uzatiladigan seriallarni ko'rish uchun bazida uyga vazifalarini ham qilmaslik holatlariga ko'pchilik ustozlar guvoh bo'lib ulgurgan.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ekranga olib chiqilayotgan har bitta tasvirda tarbiya va ibrat bolmas ekan, u buzgunchilikka xizmat qilaveradi. Toki televidenie hodimlari o'z ishlariga mas'uliyat bilan yondoshmas ekan, jamiyatimizda boshqa millat vakillariga ko'r ko'rona ergashish davom etaveradi. Bu kabi masalalarga yechim sifatida o'zbek millati va milliyligiga zid bo'lмаган “O'tkan kunlar”, “Girdob”, “Shum bola” kabi film va seriallarni ko'paytirish va efirga uzatish chora tadbirlari ilgari surilishi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagи ma'ruzasi. «Xalq so'zi», 04.08.2017.
2. 1.Saidov U. "Olomon adabiyoti", "Tafakkur" jurnali, 2008, №2, 5-bet.
3. Said Chamlja: Farzand tarbiyasida 33 xato risolasi.36-37-b.
4. O.G. Aralovna, JS Suyunovna, BI Ismoilovich... - PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology, 2020 COMPETITIVE STRATEGY MODEL AND ITS IMPACT ON MICRO BUSINESS UNIT OF LOCAL DEVELOPMENT BANKS IN JAWA.. 5437-5441. 2020/7.
5. Джумаева Шахло Суюновна .Социальная и духовная среда и её влияние на воспитание и образование. International Journal of Formal Education 2 (11), 2023 349-354.
6. Jumayeva Shaxlo Suyunovna.IJTIMOY-GUMANITAR FANLARNI O'QITISHDA INNOVASION FAOLIYATNING AXAMIYATI. Interpretation and researches, 2024 .6/5.
7. 7.Jumaeva Shakhlo Suyunovna..Combination of Mythological, Religious and Philosophical Worldviews .WEB OF SYNERGY: International Interdisciplinary Research Journal 2 (5), 270-273.
8. 8.Jumayeva, S. S. (2024). MA'NAVIY TARBIYA JARAYONIDA ALLOMALAR MEROSINING TUTGAN O'RNI. GOLDEN BRAIN, 2(20), 64-69.
9. 9. Suyunovna, J. S. (2023). THE IMPORTANCE OF GENDER EQUALITY IN
10. THE EDUCATION OF CHILDREN IN THE FAMILY. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(9), 114-117.
11. 10. Suyunovna, J. S. (2021). MA'NAVIY YUKSALISH YO'LIDAGI TAHDIDLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(3), 186-194.